

PAPER DETAILS

TITLE: XOR?ZM B?XSHICHILIK ?N'?N?L?RINING T?R?QQIYOT D?VRI

AUTHORS: Nasiba SABIROVA

PAGES: 193-199

ORIGINAL PDF URL: <https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/2235856>



İntihal / Plagiarism

This article was checked by



programında bu makale taranmıştır

Makale Bilgisi / Article information

Makale Türü / Article types	: Araştırma Makalesi / Research article
Geliş Tarihi / Received date	: 06.02.2022
Kabul Tarihi / Accepted date	: 03.06.2022
Yayın Tarihi / Date published	: 20.06.2022

Atıf / Citation

Sabirova, N. (2022). Xorazm Baxshichilik An'analarning Taraqqiyot Davri. *Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi / International Journal of Turkic Dialects (TÜRKLAD)*. 6. Cilt, 1. Sayı, 193-199.

XORAZM BAXSHICHILIK AN'ANALARINING TARAQQIYOT DAVRI
The Period of Development of Khorezm Minstrel Traditions
NASIBA SABIROVA¹

Annotatsiya

Ushbu maqolada baxshichilik san'atining so'nggi taraqqiyoti haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, Xorazmda tarqalgan parixon-po'rxonlar ham shomonlarning bir ko'rinishi ekanligi, shomonlik esa baxshichilik san'atining shakllanishida dastlabki bosqichlardan hisoblanishi, soz va so'z ustasi bo'lgan baxshilarda dastlab, tabiblik, afsungarlik kasblari ham sintezlashgani, hatto Ergash Jumanbulbul o'g'li ham "qo'shkochlik" vazifasini bajargani haqida (a) ma'lumotlar berilgan. Jumladan, maqolada A. N. Samoylovichning tadqiqotlarida Xorazm baxshilarining kitobiy dostonlar kuylaganliklarini, dutor, bulamon chalganliklarini hikoya qilganligini alohida ta'kidlanadi. Xorazmda ham shomon, o'zon, baxshi so'zlari ishlatilib kelingan va hozirda baxshi atamasi keng ommalashgan. Baxshichilik shaxsining ilohiylashtirilishi ularning yuksak xotirasi va soz, so'z sohibi ekanligi bilan aloqadordir. Ushbu kasb egalarining do'mbira jo'rligida doston kuylashlari X-XI asrlar bilan aloqador degan fikrlar mavjud. Bu hodisa ancha qadimiy bo'lishi ham mumkin. Qadimgi xorazm qal'alaridagi "Arfachi ayol xonasi"dagi rasmlar bunga asos bo'lishi mumkin. Xorazmda dastlabki baxshi va baxshilar piri hisoblangan tarixiy shaxs (1115-1191) Oshiq Oydin (Oshug'iddin Umar Suxravardiy) bo'lib, u hozirda ham baxshilarning homiysi hisoblanadi. Uning shaxsi ham ilohiylashtirilgan. Tarixiy manbalarga ko'ra Oshiq Oydin soz va so'z ustasi va ayni paytda davlat arbobi bo'lgan. Musiqa to'g'risida risola ham bitgan. Uning xorazmshohlar hukmronligi davrida yashaganini hisobga olsak, o'sha davrlarda baxshichilik san'atining rivojlangan davri bo'lganligini anglab olish mumkin bo'ladi. Oshiq Oydin pirdan keyin turkiy olamda dong taratgan o'zon, shomon, baxshi Qo'rqu' otadir. XIX asr va XX asr boshlari Xorazm baxshichilik san'atining eng gullagan davri ekanligi aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Baxshi, Xorazm Baxshichilik San'ati, Oshiq Oydin Pir, Baxshilar Homiysi, Kitobiy Dostonlar.

¹ Dr., Ürgenç Devlet Üniversitesi, Filoloji Fakültesi, Özbek Dili ve Edebiyatı Bölümü. Ürgenç/ÖZBEKİSTAN
El.mek: sabnas1@yandex.ru
 ORCID ID: <https://orcid.org/0000-0002-1236-283X>

Abstract

This article discusses the latest developments in the art of minstrel. It is also known that the parishioners in Khorezm were a form of shamanism and shamanism was one of the earliest stages in the formation of the art of bakhshi. In particular, the article emphasizes that in the researches of A. N. Samoilovich the Khorezm bakhshis sang book epics, played the dutar, bulamon. The deification of the bakhshi people is due to their high memory and the fact that they have a word. It is believed that the recitation of epics by drummers dates back to the 10th and 11th centuries. This phenomenon may be more ancient. The first person in Khorezm to be considered a bakhshi and a pir of bakhshis (1115-1191) was Oshiq Aydin (Oshugiddin Umar Sukhravardi), who is still the patron saint of bakhshis. His personality is also deified. According to historical sources, Oshiq Aydin was a master of words and phrases and at the same time a statesman. He also wrote a pamphlet on music. Considering that he lived during the reign of the Khorezm kings, it is possible to understand that the art of bakhshi was developed at that time. After the Aydin Pir, the person who became famous in the Turkic world as o'zon, shaman and bakhshi is Korkut Ata. It is said that the 19th and early 20th centuries were the heyday of Khorezm bakhshi art.

Keywords: Bakhshi, Khorezm Art of Bakhshi, Oshiq Aydin Pir, Patron of Bakhshi, Book Epics.

1. Kirish

Epos xalq ijodiyotida eng murakkab janr hisoblanadi. Shu sababli uni faqat professional ijrochigina kuylay oladi. Binobarin, dostonlar o'z ijrochisi bilan tirikdir. Ularni xalqqa yetkazish baxshilar zimmasiga tushadi. Eposni kuylash, baxshilar ijrosi haqida yozma manbalar juda kam. Eposhunos To'ra Mirzaevning ta'kidlashicha, o'zbek dostonchiligining ildizlari juda qadimga borib taqalsa-da, uning muayyan sifat o'zgarishiga uchrase XIX–XX asrga kelib, yangi o'zbek eposiga asos solindi. Uning ijodkorlari Yo'ldosh bulbul, Jumanbulbul, Ergash shoir, Fozil shoir, Po'ltan, Islom shoirlardir (Mirzayev, 2008: 43).

2. Xorazm baxshichilik san'atining qadimiyligi

Xorazm baxshichilik san'ati ildizlari ham juda qadimiyligi kasb etadi. Ayrim tadqiqotlarda bu an'ananing miloddan avvalgi 6-5 asrlarda paydo bo'lganligi qayd qilinadi (Matyakubov, 1999: 52). Bu davrlarda asosan "Avesto"ning "Yasht" kitobidagi Xudolar va qahramonlarga bag'ishlangan alqovlar, dostonlar kuylangan. X-XI asrlarga kelib Xorazm shohlar saroyida mashshoqlar, sozanda va go'yandalar juda ko'p bo'lgan (Ro'zimboyev, 2013: 4). "Xorazm poytaxti Ko'hna Urganch shahridagi ma'mur va obod zamonlarda Chingizxon harbiy qilmasdan burun bu shaharda sokin bo'lg'on odamlarning aksariyati musiqiy o'zlariga bir hunar va kasb ittixos qilg'onlar. Muning orqasida o'z oilalarining o'ngishiqlarini ta'min etgandurlar. Hatto mazkur asarlarning mubolag'a bilan ko'rsatganlariga qaraganda yolg'iz Ko'hna Urganch shahrida dutor sozina eshak (harrak) yo'nib sotib o'ngishiqlarini shul hunarlari birla o'tkaradurg'on kishilarning miqdori bir mingga yetishdi" (Mulla Bekjon Rahmon o'g'li, 1998: 7).

Ushbu satrlar rivoyatga o'xshab ketsa-da, uning zamirida katta haqiqat yotadi. San'at rivojlangan joyda adabiyot, shu jumladan dostonchilik ham taraqqiy etadi. Albatta Xorazm san'ati Chingiz bosqinidan so'ng tushkunlikka yuz tutdi. Muhammad Rahimxon I davriga kelib, saroyda maqomchilar, mashshoqlarni to'plash an'anasi davom etdi. Saroyda Niyozjon Xo'ja, Mahdumjon qozi, Muhammadjon Sandiqchi degan maqom ustalari yetishib chiqdi (Mulla Bekjon Rahmon o'g'li, 1998: 7). O'sha davrdan boshlab xon saroyida baxshi saqlash an'anasi yana davom etdi. 1819 yilda Xivaga rus zobiti N. N. Muravyov tashrif buyuradi. Xon saroyidagi baxshilar ijrosi bilan tanishadi. U baxshilar shaxsi haqida konkret ma'lumot bermasa-da, ularning ijrosi haqida ba'zi bir mulohazalarni bildirgan. Jumladan u baxshilar haqida shunday

yozadi: “Kuylovchilar ovozlari, tana harakatlari bilan oʻzlaridan oldin oʻtgan avlodlarning epchilliklarini, qoʻrqmasliklarini gʻayrat hamda jasoratlarini koʻrsatishga harakat qiladilar... ularning qoʻshiqlari ayrim hollarda tun boʻyi davom etadi, ular baland va xirillagan ovoz bilan kuylashadi. N. Muravyovning bergan maʼlumotiga qaraganda u tinglagan baxshilarning jirov ekanligi sezilib turadi. Chunki oʻsha davrda xonlikni Qoʻngʻirot sulolasiga mansub oʻzbeklar boshqargan va ular jirov-baxshilarni oʻzbeklar toifasidan tanlab saroyga keltirishgan. Ular oʻsha davrlarda jirov va baxshi sanʼatini birgalikda qoʻshib davom ettirishgan, qoʻbizda ham, dutorda ham doston qoʻshiqlarini ijro etishgan. Muravyov jirov ijrosini tinglagan boʻlsa kerakki, baxshilarning “baland va xirillagan ovozda” kuylaganliklarini aytib oʻtadi. N. N. Muravyov xon saroyida boʻlib, maqomchilar, turli xonandalarni ham tinglagan. Shu sababli oʻz asarida xivaliklarning musiqani juda sevishtirishini va qadrlashtirishini, xonandalar qoʻshiq matnlariga alohida eʼtibor bilan qarab, ularni eng talantli shoirlar ijodidan tanlab olishlarini yozib qoldirgan (Vamberi, 1867: 43).

Ayniqsa doston kuylagan baxshilar unda yaxshi taassurot qoldirgan. Shu sababli ijrochilarning musiqa asboblari xususida ham ayrim maʼlumotlarni keltirgan: “Ularning musiqa asbobi ikki torli balalaykadan iborat boʻlib, yarim oy shaklidagi qutiga oʻxshab ketadi. Uni noxun yoki qalamcha bilan chalishadi. Ulardagi yana bir cholgʻu asbobi toʻrt torli, nihoyatda yoqimsiz tovush chiqaradigan asbob boʻlib, pastdan chiqqan oʻqini yerga tirab, skripkaga oʻxshab chalinadi”. Rus missionerining tasviriga qaraganda birinchi cholgʻu asbobi tanbur, ikkinchisi esa qoʻbizdir. Demak, oʻsha paytlarda xon saroyida qoʻbiz chalib doston kuylaydigan baxshilar bir emas, bir necha boʻlgan. Muhammad Rahimxon I davrida dostonchilikning faolligini Muravyovning yana bir yozuvidan bilish mumkin. U Xivaga kelishda mamlakatning gʻarbidagi “Shohsanam qalʼasi”ga duch keladi va mahalliy aholidan ushbu joy haqidagi afsonani yozib oladi. Uning yozib olgan tafsilotlari “Oshiq Gʻarib va Shohsanam” dostonining syujetiga mos keladi. Unda Gʻaribning yetti yil darbadar kezishi, onasining koʻr boʻlib qolishi, Shohsanamning toʻyi ustiga kelishi, oʻz sevgilisining visoliga yetishi kabi voqealar tasvirlangan boʻlib, hozirgi syujetdan bir muncha farq qiladi. Albatta davr oʻtishi, ijtimoiy tuzum oʻzgarishi bilan doston voqealari ham oʻzgarishi mumkin. Eng asosiysi, doston bor joyda baxshi ham boʻladi. Demak oʻsha davrda mazkur doston talantli baxshilar tomonidan ijro qilib yurilgan.

“Oshiq Gʻarib va Shohsanam” dostonining Xorazmda mashhur boʻlganligini Muravyovning ushbu esdaliklari yana bir bor isbotlaydi. Xorazm baxshilari haqida ayrim qaydlar H. Vamberi asarlarida ham koʻzga tashlanadi. Biroq, sharqshunos olim birorta konkret baxshi haqida maʼlumot bermasdan, ular haqida yuzaki tarzda soʻz yuritadi. Masalan. U shunday yozadi: “...mazkur xrestomatiyada asosan baxshilar tomonidan aytiluvchi, ularning oʻzlari yaratgan, yoki tarjima qilgan shimoliy turk xalqlarining barchasiga tanish, ular sevgan, ularning tili, fikri va oʻylarini aks ettiruvchi materiallar bor... Ular oʻzbek xalqi va ularning xonliklari bilan qoʻshni yashovchi qirgʻizlar orasida keng tarqalgan va hamma joyda dutor yoki qoʻbiz joʻrligida bir xil kuylanadi. H. Vamberi xrestomatiya kitobiga yozgan ushbu soʻzboshisidagi fikrlari ilmiy jamoatchilik uchun nihoyatda qimmatli boʻlishi bilan birga olimning ayrim fikrlarini tuzatib oʻtishga toʻgʻri keladi.

Chunonchi, ushbu soʻzboshida olim baxshilar haqida soʻz yuritib, “baxshilar tomonidan aytiluvchi, ularning oʻzlari yaratgan yoki tarjima qilgan... materiallar” degan iborani ishlatdiki, bu fikr uning oʻzbek baxshilari haqida toʻla tasavvurga borib yetmaganini koʻrsatadi. Negaki, eng avvalo, baxshilar xalq ijodiyotiga mansub boʻlgan terma va dostonlarni ijro qilishadi. Ularning repertuaridagi asarlar asosan ustozdan shogirdga oʻtadi. Ular dostonni qardosh xalqlar baxshilari repertuaridan olganda ham H. Vamberi aytganday “tarjima qilib” emas, balki ijodiy qayta ishlash orqali oʻzlashtiradilar. Shuningdek, uning oʻzbeklar orasida tarqalgan dostonlar qoʻshni qirgʻiz va boshqa xalqlar orasida bir xil kuylanadi degan fikriga qoʻshilib boʻlmaydi. Chunki, dutor joʻrligida doston kuylash bilan qoʻbuz joʻrligidagi ijro bir-biridan keskin farqlanadi. Demak, H. Vamberi Xorazm doston ijrochilari haqida soʻz yuritisa-da, mazkur anʼana haqida toʻla ilmiy tavsif bera olmagan. Biroq, uning Qoʻngʻirotlik Mulla Ishoq bilan

qo'lyozma dostonlar to'plashi, "Baxshi kitoblari" haqida ma'lumot berishi, ko'plab dostonlarni G'arb kitobxonlariga tarjima orqali yetkazgani muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Herman Vamberi Xivaga kelgan davrda xonlik bo'hron girdobida qolgan, madaniy-ma'rifiy ishlar rivoji sustlashgan edi.

3. Xorazm baxshichilik san'atining so'nggi taraqqiyoti

Muhammad Rahimxon I davrida taraqqiyot sari yuzlangan san'at va adabiyot Muhammad Aminxon davriga kelib yanada rivojlanish bosqichiga ko'tarildi. Baxshichilik, qissaxonlik faollashdi. Maqom san'ati esa gullab-yashnadi. Usta Xudoybergan etikchi, undan Pahlavonniyoz Mirzoboshi Komillar Shashmaqomning nag'malarini to'la o'zlashtirib olishadi. Bu maqom ustalarining obro'si shu qadar yoyiladiki, hatto Qo'qon xoni Muhammad Umarxon saroy sozandalariga maqom o'rgatish uchun Xivadan Xudoybergan etikchini o'z saroyiga chaqirtirib oladi. Keyingi hukmdor Madalixon esa, Xudoybergan ustozning maslahati bilan uning shogirdlari Solihbek va Mo'minbeklarni ham Qo'qonga oldiradi va bu san'atkorlar o'sha joyda muqim bo'lib qolishadi. Binobarin, Muhammad Aminxon davridagi madaniy hayotning yuksalishi baxshichilik san'atiga ham ijobiy ta'sir o'tkazganligi tabiiydir. Ammo Muhammad Aminxonning fojeali o'limidan so'ng xonlikda yuksalayotgan madaniy-ma'rifiy hayot tushkunlikka yuz tuta boshladi. Keyingi Xiva xonligi taxtiga o'tirgan Abdullaxon va Qutlimurodxonlarning har ikkalasi 6 oydan taxtda o'tirib fojeali tarzda halok bo'lishdi.

1855 yilda taxtga o'tirgan Sayyid Muhammadxon davrida madaniy hayot yana izga tusha boshladi. Xonning o'zi ham musiqaga ishtiyoq qo'ygan bo'lib, dutor, g'ijjak kabi sozlarni ustalik bilan chalish qobiliyatiga ega edi. Shu sababli saroyga yana san'atkorlarni, xos baxshilarni yig'a boshladi. Biroq, adabiyot, san'at ilgariga avjda davom etishi qiyin edi. Bu davrda kitobxonlik negizida qissaxonlik muayyan darajada rivojlandi. Xuddi shu davrda vohaga Herman Vamberi tashrif buyurgan edi. Uni Sayyid Muhammadxon yaxshi kutib olib, xonlik hududida bemalol yurishga ruxsat berdi. H. Vamberi yuqorida qayd qilganimiz mulla Ishoq bilan xonlik hududida yurib, dostonlar yig'a boshlaydilar. Ular Amudaryo orqali Qo'ng'iro't shahriga yo'l olishadi. Qo'ng'iro't yaqiniga kelganda ziyolilar bilan suhbatlashib, "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining nasriy bayonini yozib olishadi. Mulla Ishoqning quyidagi she'riy parchalari ularning baxshi va qissaxonlar bilan uchrashib katta materiallar to'plaganliklarini isbotlaydi.

Nasib tortib bizlar bu ela keldik,

Elu xalqning izzat-hurmatin ko'rdik,

Qissa, doston yig'nab uyga jo'nadik,

Bizlarni siyladi Mo'ytan elinda.

Safarda yo'ldoshim bul Rashid hoji,

Aning Qo'ng'iro'tda bitdi muhto'ji,

Paytonga yuk bo'ldi kitoblar, vaji,

Qissa, doston sovg'a qilganlar xo'sh endi (Ro'zimboyev, 2005: 58).

Ushbu to'rtliklardagi "qissa-doston" so'zlariga razm solinsa o'sha davrda kitobat qilingan qissa-dostonlarning nihoyatda ko'pligiga qanoat hosil qilish mumkin. H. Vamberining "Chig'atoy tili darsligi" asari tarkibiga kirgan folklor namunalari ayniqsa qimmatlidir. Uning "Xrestomatiya" qismiga birinchi marta "Yusuf Ahmad", "Oysanam –Shohsanam", "Hurliqo-Hamro", "Oshiq Oydin", "Xirmondali" kabi Xorazm dostonlari kiritilgan. Mazkur asarga kiritilgan "Baxshi kitobi" bizga o'sha davrdagi doston-ijrochilari haqida muayyan darajada ma'lumotlar bera oladi.

Bu haqda Vamberining oʻzi shunday yozadi: “U oʻziga xos sheʼrlar toʻplami boʻlib, oʻrgatuvchi shogird-baxshilarning yonida olib yuriladigan kichik kitobchadir. Bu toʻplamdagi sheʼrlarning mazmuni auditoriyaga, el-ulus didiga, saviyasiga qarab oʻzgarishga uchrab turadi. Lozim paytda baxshilar unga oʻzgartishlar kiritib qoʻyishashadi. Mening qoʻlimdagi nusxa eng ommaviy, hammaga tushunarli sheʼrlardan tashkil topgan. Ularni men oʻzbeklar va turkmanlar orasida koʻp tingladim. Biroq, bu sheʼrlar uslub jihatdan sodda boʻlsa-da, ularni koʻpchilik kishi bilmaydi. Shu sababli ular ashula yoki deklamatsiya tarzida aytilishi nuqtai nazaridan Gʻarbiy Osiyo xalqlariga notanishdir. Ijro ohangiga qaraganda ularning eroniylar ijodidan olinganlik ehtimoli bor. Ammo, hozirda Eronda kuylanadigan qoʻshiqlarga ularning aloqasi yoʻq”. H. Vamberining “Baxshi kitobi”ga bergan ushbu tavsifi har jihatdan eʼtiborga loyiqdir. Chunki, Xorazm baxshilarida keyingi davrlarda ham doston va qoʻshiq matnlaridan iborat maxsus qoʻlyozmalar boʻlgan. Muhammad Rahimxon – Feruz davriga kelib, doston matnlarini oʻzgartirmasdan ijro qilish haqida farmoyish berilgan. Hatto bir kuni Feruzxon Suyav baxshiga “Goʻroʻgʻli” dostonini kuylashni buyurgan va oʻzi dostonning kitob qilingan shakliga qarab oʻtirgan. Suyav baxshi birorta soʻzda ham yanglishmay “imtihon”-dan muvaffaqiyatli oʻtgan (Aimbetov, 1988: 132).

H. Vamberining “Baxshi kitobi”dagi “deklamatsiya” shaklidagi ijro haqida maʼlumot berib, bu usul Xorazmga Erondan oʻtgan, degan farazi ham qiziqish tugʻdiradi. Bu yerda H. Vamberi ijrochilarning qiroat (rechitativ) ohangida oʻqilgan sheʼrlarni nazarda tutgan. Venger olimi “deklamatsiya” tarzidagi ijroni qissaxonlar orqali tinglagan boʻlsa kerak. Chunki ilgari davrlarda sheʼriy asarlar toʻla ravishda qiroat bilan qoʻshiq ohangida ijro etilgan. Buning asosiy sabablaridan biri “Ibtidoiy davrning vokal musiqasi ritm va rechitativdan iborat boʻlgan. Kuy esa ancha keyinroq paydo boʻlgan (Kosven, 1960: 132).

Maʼlumki baxshichilik sanʼatida anʼanaviylik barqaror saqlanib kelgan. Shu sababli qiroatxonlik XX asr boshlarigacha oʻz kuchini yoʻqotmagan. Qiroatxonlik xalfalar ijrosida haligacha davom etib kelmoqda. Xullas Vamberining nigohi tushgan “Baxshi kitobi” faqat Xorazm baxshi, xalfa va qissaxonlarigagina xos boʻlgan alohida bir anʼanadir. H. Vamberi “Baxshi kitobi”dagi bir qancha sheʼrlarni “Xrestomatiya”siga kiritgan. Unda “Sanobar” dostonidan olingan 5 bandlik sheʼriy parcha bor. Bu toʻrtliklar dostonning bizgacha yetib kelgan qoʻlyozma variantidagi muqobiliga solishtirganda juzʼiy oʻzgarishlarga koʻzga tashlanadi. Chunki yozma nusxalar orqali yetib kelgan doston matnlari barqaror saqlanish xususiyatiga ega. Faqat ularni qayta koʻchirgan kotib yoki xattotlar matnga ayrim oʻzgarishlar kiritganini kuzatish mumkin. “Baxshi kitobi”da “Oysanam-Shohsanam”, “Oshiq Oydin”, “Huriliqo –Hamro”, “Temim sahoba”, “Koʻroʻgʻli”, “Xirmondali”, “Zarqum shoh”, “Yusuf Ahmad” va boshqa qator dostonlardan parchalar berilgan. “Baxshi kitobi”da aniq baxshilar shaxsi haqida biror maʼlumot uchramasa ham, dostonlarning turli-tuman nusxalari haqida soʻz yuritilishi oʻsha davr doston ijrochilarining repertuari xususida aniq tasavvur bera oladi.

Herman Vamberi Xivadan joʻnab ketgandan keyin bir yil oʻtgach, Sayyid Muhammadxon olamdan oʻtib, Xiva xonligi taxtiga uning oʻgʻli Muhammad Rahimxon Feruz oʻtirdi. Feruz davrida Xiva xonligida adabiyot va sanʼatning rivojlanishi yangi bosqichga koʻtarildi. Maʼlumki Xorazm dostonlarining musiqa qismi alohida-alohida mustaqil kuylardan iborat. Bola baxshining maʼlumot berishicha ular 72 kuyni tashkil etgan. Shulardan bir qismini Eshvoy baxshi yaratgan: Eshvoy I, Eshvoy II, Turkman Eshvoyi, Urganjiy, Qurd Eshvoyi, Fargʻona Eshvoyi va boshqalar. Shovot tumanida “Eshvoy choʻli” degan yalanglik bor. Aytishlaricha, baxshi oʻsha choʻlni kesib oʻtishda qoʻshiq kuylar ekan. Yosh baxshilar oʻsha choʻlda tunab qolishsa, tushida ustoz baxshining ovozi eshitilarmish. Bu hodisa ularga Eshvoy baxshining fotiha berishi deb hisoblanar ekan. Eshvoy baxshining «Goʻroʻgʻli» turkumidagi 16 dostonni yoddan bilganligi haqida maʼlumotlar bor. Shuningdek u «Oshiq» turkumi dostonlaridan ham koʻpchiligini bilgan. Eshvoy baxshi ijodi va hayotini oʻrganish, uni xalqimizga yetkazish folklorshunosligimiz oldida turgan ham muhim vazifalardan biridir. Bizga

ma'lumki, til va tafakkurning taraqqiyoti inson ma'naviyatining shakllanishi va tobora rivojlanishiga yo'l ochib bergan.

Ibtidoiy dinlarning paydo bo'lishi ma'naviyat va ma'rifatning ilk nuqtalari bo'lib, ibodat qo'shiq kuylash va marosimlarni boshlab bergan. Ularni bilimli, iqtidorli koinlar amalga oshirgan. Diniy tasavvur negizida turli mifologiya shakllanib, afsona va rivoyatlar paydo bo'la boshladi. Bizga ma'lum bo'lgan "Avesto" shakllanib uning gohlari (qo'shiqlari) mutaxassis koinlar tomonidan ijro etilgan. Ular ezgu g'oyalarni ishonirish usuli bilan ommaga yetkazishgan. Koinlar shomonlarning dastlabki ko'rinishlaridir. Koin va shomonlar qadimdanoq ilohiy shaxslar sifatida tasavvur qilingan. Ularga ko'p hollarda aql-idrok, talant tushida ato etilgan. Xorazmda tarqalgan parixon-po'rxonlar ham shomonlarning bir ko'rinishidir. Shomonlik esa baxshichilik san'atining shakllanishida dastlabki bosqichlardan hisoblanadi. Soz va so'z ustasi bo'lgan baxshilarda dastlab, tabiblik, afsungarlik kasblari ham sintezlashgan. Hatto Ergash Jumanbulbul o'g'li ham "qo'shkochnik" vazifasini bajargan. Alisher Navoiy yashagan davrda baxshi atamasi kotib, mirzo ma'nolarida ham qo'llangan. Bu atamaning Respublikaning turli hududlarida "shoir", "jirov", "oqin", "sannovchi", "oxun", "soqi", "sozchi" tarzida qo'llanilishi ham uning sinkretik ma'noga egaligi bilan izohlanadi. Baxshi atamasining kelib chiqishida turli fikrlar mavjud bo'lib, V. V. Bartold uni sanskritcha "bhikshu" so'zidan kelib chiqqanligini ta'kidlaydi. A. N. Samoylovich ham ushbu fikrni qo'llab-quvvatlaydi va bu so'z negizida "muallim" ma'nosi mavjudligini tasdiqlaydi. Xorazmda ham shomon, o'zon, baxshi so'zlari ishlatilib kelingan va hozirda baxshi atamasi keng ommalashgan.

4. Baxshi va baxshilar homiysi haqida

Baxshichilik shaxsining ilohiylashtirilishi ularning yuksak xotirasi va soz, so'z sohibi ekanligi bilan aloqadordir. Ushbu kasb egalari negiz do'mbira jo'rligida doston kuylashlari X-XI asrlar bilan aloqador degan fikrlar mavjud. Bizningcha, bu hodisa ancha qadimiy bo'lishi ham mumkin. Qadimgi Xorazm qal'alaridagi "Arfachi ayol xonasi" dagi rasmlar bunga asos bo'lishi mumkin. Xorazmda dastlabki baxshi va baxshilar piri hisoblangan tarixiy shaxs (1115-1191) Oshiq Oydin (Oshug'iddin Umar Suxravardiy) bo'lib, u hozirda ham baxshilarning homiysi hisoblanadi. Uning shaxsi ham ilohiylashtirilgan. Tarixiy manbalarga ko'ra Oshiq Oydin soz va so'z ustasi va ayni paytda davlat arbobi bo'lgan. Musiq to'g'risida risola ham bitgan. Uning xorazmshohlar hukmronligi davrida yashaganini hisobga olsak, o'sha davrlarda baxshichilik san'atining rivojlangan davri bo'lganligini anglab olish mumkin bo'ladi. Oshiq Oydin pirdan keyin turkiy olamda dong taratgan o'zon, shomon, baxshi Qo'rqu otadir.

O'rta Osiyoda bitilgan "Do'st Sultontarixi" da Qo'rqu ota baxshilar piri sifatida tilga olinadi. Abulg'oziy Bahodirxon uni donishmand vazir deb bersa, Rashididdin asarlarida baxshi, o'zon sifatida tasvirlanadi. "Kitobi dadam Qo'rqu" da u donishmand oqsoqol tarzida namoyon bo'ladi. Bu shaxs haqida turli afsona va rivoyatlar tarqalgan. Ularda Qo'rqu ota shomon, o'zon, davlat arbobi, vazir, donishmand sifatida ko'zga tashlanadi. Uning baxshi qiyofasidagi obrazi hamisha yorqin ko'rinadi. Ammo uning tarixiy prototipini izlashga asos topilmagan. "Qo'rqu ota kitobi" yaratilgan davrda Chingiz bosqini oqibatida Xorazmda baxshichilik san'ati tanazzul bosqichini boshdan kechirayotgan edi (Ro'zimboyev, 2008: 58). Mazkur kitob ham O'rta Osiyoda yaratilib keyin Kavkazga ko'chgan. Xorazmda baxshichilik san'ati XIX asrga kelib yana rivojlanish bosqichiga qadam qo'ydi. Xon saroyda maqomchilar, mashshoq va baxshilar saqlash an'alarini davom ettirdi. 1919 yilda Xivaga kelgan N. Muravyov xon saroyida baxshilarni tinglagani haqida yozib qoldirgan. Uning yozishiga qaraganda xon qarorgohida jirovlar bo'lganligi seziladi. Chunki rus zobitining yozishicha, baxshi qo'biz chalgan. U o'z yozishmalarida "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni haqida ayniqsa muhim ma'lumotlarni qayd qilib o'tgan.

5. Xulosa

Muhammad Aminxon davrida san'at yanada rivojlanish bosqichiga qadam qo'ydi. 1855 yilda taxtga o'tirgan Sayyid Muhammadxon davrida san'atga qiziqish yanada kuchaydi, xonning o'zi ham mohir g'ijjakchi bo'lgan. O'sha davrda Xivaga kelgan Herman Vamberining "Chig'atoy tili darsligi" kitobida ushbu davr dostonchiligi xususida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Qo'ng'iroqlik Mulla Ishoq unga "Bir payton" qissa doston to'plab berganini yozib qoldirgan. Mullaning o'zi ham shoir-baxshi-qissaxon bo'lgan. Muhammad Rahimxon - Feruz davrida baxshichilik san'ati gullab-yashnadi. Uning saroyida xos baxshilar faoliyat ko'rsatdi. Shulardan biri Rizo baxshi (bejilov) hisoblanadi. "Uning hukmronlik yillarida Suyav baxshi, Ernafas baxshi, Avaz bola, Nurulla tandir, Jumanazar baxshilar faoliyat ko'rsatgan. Mashhur Qurbonnazar Abdullaev-Bola baxshi ham o'sha davrda yetishib chiqqan kishidir. 1908 yilda Xivaga kelgan A. N. Samoylovichning tadqiqotlarida Xorazm baxshilarining kitobiy dostonlar kuylaganliklarini, dutor, bulamon chalganliklarini hikoya qiladi. Binobarin, XIX asr va XX asr boshlari Xorazm baxshichilik san'atining eng gullagan davridir.

Adabiyotlar

- Ayimbetov, Q. (1988). *Xaliq danalig'i*. Nökis: Qaraqalpaqstan.
- Kosven, M. O. (1960). *Ibtidoiy madaniyat taraxidan ocherklar*. Toshkent.
- Matyoqubov, B. (1999). *Xorazm doston ijrochiligining zarxat sahifalari*. Urganch: Xorazm.
- Mirzaev, T. (2008). *Epos i skazitel*. Toshkent: Fan.
- Rahmon o'g'li, M. B., Devonzoda, M. Y. (1998). *Xorazm musiqa tarixchisi*. Toshkent: Yozuvchi.
- Ro'zimboyev S. (2008). Xorazm dostonchiligi epik an'analari. Urganch: Universitet.
- Ro'zimboyev S. (2013). Xalq ijodining noyob durdonalari. *Oshiqnoma*, 6-kitob, Urganch: Xorazm.
- Ro'zimboyev, S. (2005). *Mulla Is'hoq*. Urganch: Universitet.
- Vamberi, H. (1867). *Chig'atoy tili darsligi*. Leipzig.

Etik, Beyan ve Açıklamalar

1. Etik Kurul izni ile ilgili;
☒ Bu çalışmanın yazar/yazarları, Etik Kurul İznine gerek olmadığını beyan etmektedir.
2. Bu çalışmanın yazar/yazarları, araştırma ve yayım etiği ilkelerine uyduklarını kabul etmektedir.
3. Bu çalışmanın yazar/yazarları kullanmış oldukları resim, şekil, fotoğraf ve benzeri belgelerin kullanımında tüm sorumlulukları kabul etmektedir.
4. Bu çalışmanın benzerlik raporu bulunmaktadır.